



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Jumamuratova Ruxshona Saparbayevna

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi*

Ilmiy rahbar: H.Allambergenov

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17272344>

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy xalqlar adabiyotini o‘rganishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Raqamlashtirish, qiyosiy adabiyotshunoslik, psixologik tahlil, tarjima jarayonlari va fanlararo integratsiya masalalari ko‘rib chiqiladi. Innovatsion metodlardan foydalanish turkiy xalqlar boy adabiy merosini chuqurroq o‘rganish, uni jahon miqyosida targ‘ib etish imkonini yaratishi ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Turkiy xalqlar adabiyoti, innovatsiya, qiyosiy tahlil, tarjima, raqamlashtirish.

Аннотация: В статье рассматривается значение инновационных подходов в исследовании литературы тюркских народов. Анализируются процессы цифровизации, сравнительное литературоведение, психологический анализ, перевод и междисциплинарная интеграция. Отмечается, что использование инновационных методов способствует более глубокому изучению богатого литературного наследия тюркских народов и его продвижению в мировом масштабе.

Ключевые слова: Литература тюркских народов, инновация, сравнительный анализ, перевод, цифровизация.

Abstract: This article examines the importance of innovative approaches in the study of Turkic peoples' literature. The processes of digitization, comparative literary studies, psychological analysis, translation, and interdisciplinary integration are discussed. It is emphasized that the use of innovative methods contributes to a deeper understanding of the rich literary heritage of the Turkic peoples and its promotion on a global scale.

Keywords: Turkic peoples' literature, innovation, comparative analysis, translation, digitization.

Turkiy xalqlar – o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, uyg‘ur, tatar, ozarbayjon, turk va boshqa ko‘plab xalqlar qadimiy tarixga ega bo‘lib, ularning adabiyoti jahon madaniyatining muhim tarkibiy qismidir. O‘rxun-Enasoy bitiklari, “O‘g‘uznoma”, “Manas” va “Alpomish” dostonlari, Alisher Navoiy, Abay, Maxtumquli, Chingiz Aytmatov kabi ulug‘ ijodkorlar merosi turkiy xalqlar adabiyotining ulkan salohiyatini ko‘rsatadi. Bugungi globallashtirish davrida ushbu merosni yangicha yondashuvlar bilan tadqiq qilish zarurati ortib bormoqda.

Turkiy xalqlar adabiy merosini raqamlashtirish, elektron kutubxonalar yaratish, matnlarni kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilish imkoniyati kengaymoqda.



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” *mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya*



Masalan, Navoiy asarlarining elektron nashrlari, O‘rxun-Enasoy bitiklarining internetda elektron varianti mavjudligi tadqiqotchilar uchun katta qulaylik yaratadi.

Turkiy xalqlar adabiyotini jahon adabiyoti bilan qiyoslab o‘rganish, uning o‘ziga xosligi va mushtarak xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Qiyosiy tahlil orqali turkiy adabiyotdagi mavzular, obrazlar, badiiy usullar boshqa xalqlar ijodidagi hodisalar bilan solishtiriladi. Masalan, Alisher Navoiy va Dante ijodida muhabbat, adolat va ilohiy haqiqat mavzularining ifodalanishi; Chingiz Aytmatov asarlari va Gabriel Garsia Marques romanlarida inson taqdiri, vaqt va makon tushunchasining badiiy talqini bir-biriga yaqin. Shuningdek, “Manas” va “Iliada”, “Alpomish” va “Shohnoma” kabi epik dostonlarning qiyosi qadimiy xalqlarning umumiy badiiy tafakkuridan dalolat beradi. Qiyosiy adabiyotshunoslik yondashuvi turkiy xalqlar adabiyotini jahon miqyosida talqin qilish imkonini beradi, uni kengroq kitobxonlar ommasiga tanishtiradi.

Turkiy xalqlar adabiyotining keng yoyilishi ko‘p jihatdan tarjima jarayoni bilan bog‘liq. Chunki asar qanchalik go‘zal bo‘lmasin, u boshqa xalqlarga tarjima orqali yetib boradi. Masalan, Alisher Navoiyning “Xamsa”si [5] rus, ingliz va boshqa ko‘plab tillarga o‘girilib, jahon ilmiy doiralarida o‘rganilmoqda. Chingiz Aytmatovning [3] “Jamila”, “Asrga tatigulik kun” kabi asarlari yuzdan ortiq tillarga tarjima qilinib, jahon adabiyotida katta iz qoldirdi. O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”[4] asari ham turk va rus tillariga tarjima qilingan. Tarjima jarayoni nafaqat asar matnini boshqa tilda qayta ifodalash, balki milliy badiiy tafakkurni boshqa madaniy kontekstda qayta anglash jarayonidir. Shu jihatdan tarjima nazariyasi turkiy xalqlar adabiyotining o‘zaro aloqalarini va jahon adabiyotidagi o‘mini belgilashda muhim vosita hisoblanadi.

Adabiyotda qahramonlarning ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. O‘tkir Hoshimov, Chingiz Aytmatov, Orhan Pamuk asarlarida inson ruhiyati chuqur tasvirlanadi. Psixologik yondashuvlar turkiy adabiyotdagi badiiy kechinmalarni yanada aniqroq tahlil qilish imkonini beradi.

Adabiyotni tarix, sotsiologiya, antropologiya va texnologiya bilan bog‘lab o‘rganish zamonaviy ilm-fan talabiga aylanmoqda. Bu usul turkiy xalqlar adabiyotini yanada keng qamrovli tadqiq qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, turkiy xalqlar adabiyotini tadqiq etishda innovatsion yondashuvlar zamon talabi hisoblanadi. Raqamlashtirish, qiyosiy tahlil, psixologik yondashuv, tarjima jarayonlari va fanlararo tadqiqotlar orqali turkiy xalqlar boy adabiy merosi chuqurroq o‘rganilib, jahon ilmiy maydonida keng targ‘ib etiladi.



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” *mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya*



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986.
2. Умуров Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 2002.
3. Chingiz Aytmatov. Asrga tatigulik kun. – Bishkek, 1980.
4. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1982.
5. Alisher Navoiy. Xamsa. –Toshkent: Fan nashriyoti, 1983.